O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK:159.9(575.1)

Ulug‘bek U. SAYDULLAYEV,
PhD, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: nozubay6667@gmail.com, ORCID:0009-0006-7606-0001

Qo‘qon universiteti professori N.Xolmirzayev taqrizi asosida

MAHKUMLARNI OZODLIKKA TAYYORLASH VA IJTIMOIY REINTEGRATSIYA QILISHNING FALSAFIY-HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada penitensiar muassasalarda jazoni o‘tayotgan shaxslarni ozodlikka tayyorlash va ularni jamiyatga qayta qo‘shish jarayonining falsafiy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Muallif mahkumning huquqiy maqomini, uning erkinlik va tabiiy huquqlar bilan munosabatini falsafiy antropologiya nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi. Tadqiqotda «antropopenologiya» tushunchasi, «oddiylik tamoyili» va shaxsning ozodlik sharoitida o‘z-o‘zini anglashi masalalari mavjud ilmiy manbalar asosida o‘rganilgan. Muallif jazoni ijro etish muassasasi ichidagi norasmiy munosabatlar tizimi shaxs identikligiga qanday ta'sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Shuningdek, milliy va xorijiy huquqiy tajriba qiyosiy tarzda tahlil qilinadi. Maqola yakunida ozodlikka tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha falsafiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: penitensiar huquq, antropopenologiya, shaxs erkinligi, huquqiy maqom, ijtimoiy reintegratsiya, tabiiy huquqlar, oddiylik tamoyili, pentitensiar subkultura, ozodlikka tayyorlash, falsafiy antropologiya.

ФИЛОСОФСКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ ОСУЖДЕННЫХ К ОСВОБОЖДЕНИЮ И ИХ СОЦИАЛЬНОЙ РЕИНТЕГРАТSIИ

Аннотация

В статье анализируются философско-правовые основы процесса подготовки лиц, отбывающих наказание в пенитенциарных учреждениях, к освобождению и их последующей реинтегратsii в общество. Автор рассматривает правовой статус осужденного, его отношение к свободе и естественным правам с точки зрения философской антропологии. В исследовании на основе имеющихся научных источников изучены понятие «антропопенология», «принцип обычности», а также вопросы самопознания личности в условиях свободы. Автор показывает, каким образом система неформальных отношений внутри пенитенциарного учреждения влияет на идентичность личности. Также проведен сравнительный анализ natsионального и зарубежного правового опыта. В заключение статьи разработаны философски обоснованные рекомендатsii по совершенствованию системы подготовки к освобождению.

Ключевые слова: пенитенциарное право, антропопенология, свобода личности, правовой статус, социальная реинтеграци я, естественные права, принцип обычности, пенитенциарная субкультура, подготовка к освобождению, философская антропология.

PHILOSOPHICAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF PREPARING CONVICTS FOR RELEASE AND THEIR SOCIAL REINTEGRATION

Annotation

The article analyzes the philosophical and legal foundations of the process of preparing persons serving sentences in penitentiary institutions for release and their subsequent reintegration into society. The author examines the legal status of a convicted person and his relationship to freedom and natural rights from the standpoint of philosophical anthropology. Based on available scientific sources, the study explores the concept of «anthropopenology», the «principle of normality», and questions of personal self-cognition under conditions of freedom. The author demonstrates how the system of informal relations within a penitentiary institution affects personal identity. A comparative analysis of national and foreign legal experience is also carried out. The article concludes with philosophically grounded recommendations for improving the system of preparation for release.

Keywords: penitentiary law, anthropopenology, personal freedom, legal status, social reintegration, natural rights, principle of normality, penitentiary subculture, preparation for release, philosophical anthropology.

Kirish. Jazoni ijro etish muassasasida bo‘lish shaxsning huquqiy maqomini tubdan o‘zgartiradi. Bu o‘zgarish faqat harakat erkinligini cheklash bilan chegaralanmaydi. U shaxsning o‘zini va atrofdagi olamni anglash tarzini ham qayta quradi. Shu bois mahkumni ozodlikka tayyorlash masalasini sof huquqiy tadbir sifatida talqin qilish yetarli emas. Bu masala shaxs falsafasi, erkinlik nazariyasi va tabiiy huquqlar tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Falsafiy antropologiya nuqtai nazaridan qaraganda, inson doimo o‘zining ijtimoiy muhitiga mos ravishda shakllanadi. Jazoni ijro etish muassasasi o‘ziga xos yopiq muhit bo‘lib, unda norasmiy me'yorlar va munosabatlar tizimi mavjud. Ushbu tizim shaxsning xulq-atvorini, qadriyatlarini va o‘zini anglash tarzini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Natijada ozodlikka chiqish arafasida turgan shaxs ikki dunyo o‘rtasida qoladi. Bir tomonda muassasa ichida shakllangan xulq-atvor modeli, ikkinchi tomonda erkin jamiyatning talablari turadi.

Huquqiy nuqtai nazardan esa, mahkumning tabiiy huquqlari masalasi alohida ahamiyatlidir. Har qanday shaxs, hatto ozodlikdan mahrum etilgan bo‘lsa ham, hayot, xavfsizlik va insoniy munosabatga bo‘lgan huquqini saqlab qoladi. Ushbu huquqlarni tan olish davlatning jazo siyosati qanchalik insonparvar ekanligini belgilaydigan mezonlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilinadigan shaxslarni tayyorlash borasida ma'lum institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyotda ushbu jarayonning falsafiy-nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Xorijiy huquqiy tizimlar tajribasi va nazariy tadqiqotlar bu boradagi bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qilishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi mahkumlarni ozodlikka tayyorlash va ijtimoiy reintegratsiya qilishning falsafiy-huquqiy asoslarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish, shaxsning erkinlik va huquqiy maqom bilan munosabatini falsafiy jihatdan yoritish, hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Erkinlik masalasi jazoni o‘tagan shaxs falsafasining markazida turadi. Bu borada Yu.V.Baranov o‘z asarida Gegelning quyidagi fikrini keltiradi: «Каждый хочет, чтобы его считали свободным и независимым» [1]. Fikrimizcha, ushbu falsafiy pozitsiya jazoni o‘tagan shaxsning jamiyat bilan munosabatini tushunish uchun asosiy kalit vazifasini bajaradi. Har qanday inson, hatto huquqbuzarlik sodir etgan bo‘lsa ham, o‘zini erkin va mustaqil mavjudot sifatida tanilishga bo‘lgan ichki ehtiyojni saqlab qoladi. Ushbu ehtiyojning e'tirof etilmasligi esa ozod etilgan shaxs va jamiyat o‘rtasida doimiy ziddiyat manbaiga aylanadi.

Mazkur ziddiyatni nazariy jihatdan tushunish uchun Baranov “antropopenologiya” degan yangi tushunchani taklif qiladi. Muallifning ta’kidlashicha, «антропопенология изучает правовое бытие человека во время его пребывания в местах лишения свободы в контексте общего правового бытия человека» [2]. Bizning nazarimizda, mazkur yondashuv mahkumni faqat jazo obyekti sifatida emas, balki huquqiy borliqning tabiiy ishtirokchisi sifatida ko‘rish zaruratini asoslaydi. Bu qarash penitensiar huquq falsafasida insonparvarlik tamoyilining nazariy poydevorini kuchaytiradi.

Ushbu g‘oyaning mantiqiy davomi sifatida Baranov “oddiylik tamoyili”ni ilgari suradi. Muallif shunday yozadi: «Осужденному к лишению свободы должны быть представлены условия, при которых он мог бы свободно осуществить осознанный выбор между законопослушным поведением и нарушением закона» [3]. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, mazkur tamoyil shaxsning axloqiy mas'uliyatini faqat tashqi nazorat orqali emas, balki ichki tanlov erkinligi orqali shakllantirishga qaratilgan. Bu qarash klassik jazo nazariyalaridan farqli o‘laroq, mahkumni passiv obyekt emas, balki faol axloqiy subyekt sifatida tan oladi.

Shu bilan birga, resotsializatsiya nazariyasining o‘zi hali yakuniy shakllanmagan ilmiy soha ekanligini ta'kidlash lozim. Baranov bu haqda quyidagicha yozadi: «Идут споры относительно определения, сущности ресоциализатsии, относительно разделения данного процесса» [4]. Aksariyat tadqiqotchilar fikricha, mazkur nazariy noaniqlik amaliyotda ham o‘z izini qoldiradi. Turli davlatlarning ozodlikka tayyorlash tizimlari bir-biridan farq qilishining sababi ham aynan shu nazariy yagonalikning yo‘qligidadir.

Jazoni ijro etish muassasasi ichidagi norasmiy munosabatlar tizimi shaxs identikligiga qanday ta'sir qilishi masalasida Yu.R.Gerasimova qimmatli kuzatuvlar keltiradi. Muallifning fikricha, penitensiar muassasaning yopiq ijtimoiy tizimi sifatidagi xususiyatlari «определяют взаимоотношения индивидов между собой, оказывают сильное влияние на человека» [5]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur ta'sir shaxsning ozodlikka chiqqandan keyingi xulq-atvorida ham davom etadi. Muassasa ichida shakllangan norasmiy iyerarxiya va munosabat me'yorlari shaxsning erkin jamiyat me'yorlariga moslashuvini murakkablashtiradigan omillardan biriga aylanadi.

Milliy huquqiy hujjatlar orasida Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 543-сон қарори alohida o‘rin tutadi. Ushbu qarorda “mahkumlarni axloqan tuzatish, ularga qonunga itoatkorlik ruhini singdirish, jamiyatning ijtimoiy faol a’zosi bo‘lishiga yordam ko‘rsatish bo‘yicha individual manzilli dasturlar ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi” [6] deb belgilangan. Bizningcha, mazkur norma davlat siyosatining nazariy jihatdan Baranov ilgari surgan “oddiylik tamoyili”ga yaqin turishini ko‘rsatadi. Individual dastur tushunchasining qonun darajasida mustahkamlanishi shaxsga nisbatan yagona shablon emas, balki tabaqalashtirilgan yondashuv qo‘llanilishini nazarda tutadi.

Xorijiy tajriba tahlilida V.Egamberdiyevning tadqiqoti muhim o‘rin tutadi. Muallif Germaniya tajribasini yuqori baholab, “Germaniya davlati tajribasida jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish jarayoni adolatli ravishda dunyodagi eng yaxshilardan biri hisoblanib” [7] deb yozadi. Shu bilan birga, muallif muammoning kengligini statistik ma'lumotlar orqali ham asoslaydi: “2024-yilda jazoni ijro etish muassasalarida 11,5 mln mahkumlar saqlanmoqda” [8]. Fikrimizcha, bu raqamlar mahkumlarni ozodlikka tayyorlash masalasi nafaqat milliy, balki global ahamiyatga ega muammo ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.

Amaliy tayyorgarlik bosqichining huquqiy jihatlari I.Nasirov tomonidan ham yoritilgan. Muallif ta’kidlaydiki, “jazoni ijro etish muassasasiga jazoni o‘tash uchun keltirilgan har bir mahkum o‘n besh sutkagacha ko‘nikma bo‘limida saqlanishi normativ huquqiy hujjatlar bilan belgilab qo‘yilgan” [9]. Ushbu norma shaxsning muassasaga moslashuv bosqichi qonun darajasida tartibga solinganligini ko‘rsatadi. Bizning nazarimizda, aynan shu dastlabki bosqichda shaxsning kelajakdagi psixologik holati va huquqiy ongi shakllanishi uchun zamin yaratiladi.

Nihoyat, dasturlarni ilmiy asoslash masalasida A.I.Rozentsvaygning qarashlari diqqatga sazovordir. Muallif reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishda “dasturlarni individuallashtirish tamoyili”[10] ga amal qilish zarurligini ta’kidlaydi. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, mazkur tamoyil yuqorida ko‘rib chiqilgan “oddiylik tamoyili” va antropopenologik yondashuv bilan uzviy bog‘liqdir. Har uchala qarash ham shaxsga nisbatan yagona, shablon yondashuvdan voz kechish zarurligini turli nazariy tildan ifodalaydi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida keltirilgan qarashlarni umumlashtirish mahkumlarni ozodlikka tayyorlash masalasi uch darajada ko‘rib chiqilishi lozimligini ko‘rsatadi. Bular huquqiy maqom darajasi, ichki dunyoqarash darajasi va institutsional amaliyot darajasidir. Har bir daraja o‘ziga xos falsafiy mazmunga ega.

Huquqiy maqom darajasida shaxs ozodlikdan mahrum etilgan bo‘lsa ham, tabiiy huquqlar egasi sifatida qolishda davom etadi. Bu qarash klassik retributiv jazo falsafasidan farq qiladi. Retributiv yondashuvda shaxs jinoyati orqali belgilanadi va uning boshqa sifatlari e’tibordan chetda qoladi. Antropopenologik yondashuvda esa mahkum avvalo inson, keyin esa huquqbuzar sifatida qaraladi. Bizning fikrimizcha, aynan shu tartib almashinuvi zamonaviy penitensiar falsafaning negizini tashkil etadi.

Ichki dunyoqarash darajasida esa masala ancha murakkabroq tus oladi. Jazoni ijro etish muassasasi ichida shaxs ma'lum bir norasmiy tizimga moslashadi. Ushbu tizim o‘z ichida iyerarxiya, til, xulq-atvor namunalarini o‘z ichiga oladi. Shaxs uzoq vaqt davomida shu tizim doirasida yashagach, uning ongida yangi identiklik shakllanadi. Ozodlikka chiqish esa shu identiklikning qisman yoki to‘liq inkor etilishini talab qiladi. Aynan shu nuqtada ichki ziddiyat paydo bo‘ladi. Shaxs bir tomondan erkin jamiyat me’yorlarini

qabul qilishga majbur, ikkinchi tomondan uzoq vaqt davomida shakllangan xulq-atvor modelidan voz kechishi lozim.

Ushbu ziddiyatni yengish uchun shaxsga faqat tashqi nazorat emas, balki ichki tanlov erkinligi berilishi zarur. Tanlov erkinligisiz amalga oshirilgan har qanday tarbiyaviy tadbir vaqtinchalik natija beradi, xolos. Chunki tashqi majburlash orqali shakllangan xulq-atvor qulay sharoit yo‘qolgan zahoti o‘z kuchini yo‘qotadi. Shu sababli ozodlikka tayyorlash dasturlari shaxsning ongli tanlov qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Institutsional amaliyot darajasida esa individual dasturlarning huquqiy jihatdan mustahkamlanishi alohida o‘rin tutadi. Har bir mahkumga bir xil dastur qo‘llash uning shaxsiy xususiyatlarini e’tiborsiz qoldirishga olib keladi. Individuallashtirilgan yondashuv esa shaxsning aynan qaysi jihatda yordamga muhtoj ekanligini aniqlash imkonini beradi. Bu yondashuv nazariy jihatdan antropopenologik pozitsiya bilan mustahkam bog‘liqdir, chunki ikkisi ham shaxsni yagona shablon orqali emas, balki individual borliq sifatida tan olishga asoslanadi.

Alohida ta’kidlash lozimki, ozodlikka tayyorgarlik jarayonining vaqt omili katta ahamiyatga egadir. Shaxsning muassasaga moslashuv bosqichi qanchalik puxta tashkil etilgan bo‘lsa, uning ozodlikka tayyorgarlik bosqichi ham shunchalik samarali kechadi. Bu ikki bosqich orasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Muassasaga kirish bosqichida shaxsning psixologik holati va huquqiy ongi qanday shakllanishi, uning yillar o‘tib ozodlikka qanday tayyorlanishiga bevosita ta'sir qiladi.

Shuningdek, davlat va jamiyat o‘rtasidagi mas’uliyat taqsimoti masalasi ham falsafiy tahlilga muhtoj. Davlat institutlari huquqiy kafolatlarni ta’minlashi mumkin, biroq ular yolg‘iz o‘zi shaxsning ichki o‘zgarishini kafolatlay olmaydi. Jamiyatning o‘zi ham ozod etilgan shaxsni qabul qilishga tayyor bo‘lishi kerak. Aks holda, eng puxta ishlab chiqilgan huquqiy dastur ham amaliyotda o‘z samarasini bermaydi.

Tahlil yakunida shuni aytish mumkinki, mahkumlarni ozodlikka tayyorlash masalasi uchta darajaning uyg‘un birligini talab qiladi. Ushbu birlik buzilganda, har qanday institutsional islohot faqat qog‘ozda qolib ketish xavfiga ega bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tahlil mahkumlarni ozodlikka tayyorlash va ijtimoiy reintegratsiya qilish masalasi huquqiy tartibga solishdan tashqari chuqur falsafiy-antropologik mazmunga ega ekanligini ko‘rsatdi. Shaxsning tabiiy huquqlari, uning erkinlik va o‘z-o‘zini anglash bilan munosabati ushbu masalaning nazariy poydevorini tashkil etadi.

Bizning fikrimizcha, ozodlikka tayyorlash tizimini takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Birinchidan, mahkumning huquqiy maqomi tan olinishi shunchaki deklarativ xarakterda bo‘lmasligi kerak. Har bir tarbiyaviy va ta'lim dasturi shaxsning tabiiy huquqlarini hurmat qilish tamoyiliga asoslanishi lozim.

Ikkinchidan, individual dasturlarni ishlab chiqishda shaxsning ichki tanlov erkinligiga alohida o‘rin berilishi zarur. Faqat tashqi nazoratga asoslangan tarbiyaviy ish uzoq muddatli natija bermaydi. Shaxsga o‘z xatti-harakati oqibatlarini anglash va ongli tanlov qilish imkoniyati yaratilishi kerak.

Uchinchidan, muassasaga kirish bosqichidagi dastlabki moslashuv jarayoni bilan ozodlikka tayyorgarlik bosqichi o‘rtasidagi uzviylik ta'minlanishi lozim. Bu ikki bosqichni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki yagona pedagogik-huquqiy tizim doirasida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Nihoyat, jamiyatni ozod etilgan shaxsni qabul qilishga tayyorlash bo‘yicha maqsadli ishlar davlat dasturlariga kiritilishi zarur. Huquqiy islohotlar qanchalik puxta bo‘lmasin, jamiyatning ochiqligisiz ular to‘liq samara bermaydi.

Falsafiy nuqtai nazardan xulosa qilinganda, mahkumni ozodlikka tayyorlash uni yangidan “jazolash” emas, balki uning inson sifatidagi maqomini qayta tiklash jarayoni sifatida tushunilishi kerak. Ushbu tushunish o‘zgarmaguncha, har qanday huquqiy islohot faqat tashqi shakl bo‘lib qolishda davom etadi.

ADABIYOTLAR

1. Гегель Г.В.Ф. Психологические проповеди (цит. по: Баранов Ю.В. Стадии ресоциализatsii осужденных в свете новых социолого-антропологических воззрений и социальной философии. - СПб.: Издательство Р. Асланова «Юридический центр Пресс», 2006. - С. 124).
2. Баранов Ю.В. Стадии ресоциализatsii осужденных в свете новых социолого-антропологических воззрений и социальной философии. - СПб.: Издательство Р. Асланова «Юридический центр Пресс», 2006. - С. 67.
3. Баранов Ю.В. Указанное сочинение. - С. 25.
4. Баранов Ю.В. Указанное сочинение. - С. 5.
5. Герасимова Ю.Р. Самоидентификатsia в местах лишения свободы // Социально-культурные процессы в условиях интеграtsii и дезинтеграtsii: Материалы Всероссийской научной конференции с международным участием. - Улан-Удэ: Издательство Бурятского госуниверситета, 2017. - С. 183.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 17 iyuldagi «Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy ta’minlash va ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 543-son qarori.
7. Egamberdiev V. Experience of Certain Foreign Countries in Social Rehabilitation and Adaptation Activities for Persons Released from Penitentiary Institutions // Jamiyat va innovatsiyalar - Obщestvo i innovatsii - Society and innovations. - 2025. - Special Issue 12. - S. 267.
8. Nasirov I., Ma’murov F. Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni ozodlikka tayyorlash va ijtimoiy moslashtirish faoliyatini takomillashtirish // SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM International scientific-online conference. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15672853
9. Розенцвайг А.И. Зарубежные модели практик ресоциализatsii лиц, отбывших уголовное наказание и освобожденных от него: криминологический анализ // Юридический вестник Самарского университета. - 2018. - Т. 4. - № 1. - С. 119 (цит. по: Egamberdiev V. Указанное сочинение. - С. 272).